



## ACTIVITIES OF THE ARMED ISLAMIC OPPOSITION IN THE CIVIL WAR IN SYRIA

**Farkhod Erkinovich Karimov**

*Doctor of Political Science (Dsc)*

*International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [farkhodkarimov1987@gmail.com](mailto:farkhodkarimov1987@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** The Syrian uprising, the armed Islamic opposition, the Syrian Muslim Brotherhood, Jabhat al-Nusra (Hayat Tahrir al-Sham), Harakat Nour al-Din al-Zenki (NZD), Jaish al-Islam, Failaq al-Rahman, Ahrar al-Sham, Hurras al-Din (HaD), Free Syrian Police

**Received:** 08.01.24

**Accepted:** 10.01.24

**Published:** 12.01.24

**Abstract:** This article provides information about the internal conflict and civil war in Syria, the activities of militant Islamic groups in internal conflicts, their relations, and their consequences. Analytical information about how these groups and organizations are organized and what their goals are is provided.

## SURIYADAGI FUQAROLIK URUSHIDAGI QUROLLI ISLOMIY MUXOLIFATLAR FAOLIYATI

**Farkod Erkinovich Karimov**

*siyosiy fanlar doktori (Dsc)*

*O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi,  
Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [farkodkarimov1987@gmail.com](mailto:farkodkarimov1987@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Suriya qo'zg'oloni, qurolli islomiy muxolifat, Suriya "Musulmon Birodarlar" tashkiloti, Jabhat al-Nusra (Hayat Tahrir al-Sham), Harakat Nour al-Din al-Zenki (NZD), Jaish al-Islam, Failaq al-Rahman, Ahrar al-Sham, Hurras al-Din (HaD), Ozod Suriya Politsiyasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Suriyadagi ichki nizo va fuqarolar urushi, ichki nizolarida jangari islomiy guruuhlar faoliyati, o'zaro munosabatlari, oqibatlari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, mazkur guruh va tashkilotlarning qanday tashkil topishi, qanday maqsadlarda faoliyat yuritishi haqida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВООРУЖЕННОЙ ИСЛАМСКОЙ ОППОЗИЦИИ В ГРАЖДАНСКОЙ ВОЙНЕ В СИРИИ

**Фарход Эркинович Каримов**

Доктор политических наук (Dsc)

Международная исламская академия Узбекистана,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [Farkhodkarimov1987@gmail.com](mailto:Farkhodkarimov1987@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Сирийское восстание, вооруженная исламская оппозиция, Сирийские Братья-мусульмане, Джабхат ан-Нусра (Хаят Тахрир аш-Шам), Харакат Нур ад-Дин аль-Зенки (Новая Зеландия), Джейш аль-Ислам, Файлак аль-Рахман, Ахрап аль-Шам, Хуррас ад-Дин (Хад), Свободная сирийская полиция

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о внутреннем конфликте и гражданской войне в Сирии, деятельности воинствующих исламских группировок во внутренних конфликтах, их взаимоотношениях и их последствиях. Предоставляется аналитическая информация о том, как организованы эти группы и организации и каковы их цели.

### KIRISH

Ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar Suriyada turli islomiy jangari guruhlarning tuzilishi mamlakatning yaqin tarixida hokimiyatdagi oz sonli alaviylarning hukmronligiga qarshi ko‘pchilikni tashkil etuvchi sunniylarning qarshiligi doim bo‘lganligi, buning misoli sifatida Suriya “Musulmon Birodarlar”ning muxolifati va hatto qurolli qarshiliklari haqida bayon qiladi. Bu bir qarashda ilmiy jihatdan to‘g‘ri faraz bo‘lib ko‘rinishi mumkin, biroq bu 2011-yildan keyin ichki nizolar paytida o‘rtaga chiqqan jangari islomiy guruhlarning faoliyati va maqsadlarining mazmun-mohiyatini anglatmaydi. Sababi, bunga bir qancha misol keltirish mumkin: masalan, salafiy va “jihadchi” guruhlar alaviylardan ko‘ra ko‘proq sunniylarga talofat va zarar yetkazganining o‘zi bizga vaziyatni oydinlashtirsa, boshqa tomondan ushbu guruhlarning maqsadi diniy jihatdan ko‘ra siyosiy jihatlarga qaratilganligi va u yoki bu tashqi kuchlarning geosiyosiy manfaatlari uchun xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, yetakchilik uchun bir-birlari bilan urushib ketishi avvalboshdan ularning diniy motivlari bo‘lmaganligini ham bildiradi. Shu o‘rinda ayтиб o‘tish lozimki, ushbu ma’lumotda Suriyada 2014-2018 yillarda soni va ta’siri jihatdan eng yirik bo‘lgan IShID (“Islom davlati”) haqida to‘xtalmaymiz, chunki birinchidan, ushbu terror tashkiloti haqida birinchi ma’ruzamizda batafsilroq ma’lumot bergen bo‘lsak, ikkinchidan, IShID faqat Suriyada Asad rejimiga qarshi muxolifatdagi guruhamas, balki global ko‘rinishda “xalifalik”ni tuzishni maqsad qilgan, har qandan zamonaviy boshqaruв tizimini inkor etadigan, g‘arb ayniqsa AQShga qarshi qaratilgan xalqaro terror tashkilotidir. Bundan farqli o‘larоq Suriyadagi boshqa islomiy quollangan

guruqlar faqat Suriya hukumatiga qarshi ekanligini bildirmoqda va ushbu ma’ruzada shular haqida ma’lumot berib o’tiladi.

## ASOSIY QISM

### **Suriya “Musulmon Birodarlar” tashkiloti**

“Musulmon Birodarlar” transmilliy sunniy islomiy harakat bo‘lib, nazariy jihatdan shariatni (Islom qonunlarini) o‘rnatishga intiladi. 1928-yilda Hasan al-Banna tomonidan asos solingan Misrdagi “Birodarlar”ning davomi sifatida 1942-yilda Mustafo as-Siboiy Suriyadagi “Musulmon Birodarlar” tashkilotiga asos solgan. 2014-yildan beri guruwni Muhammad Hikmat Walid boshqarib keladi. Ayrim tahlilchilar, “Birodarlar” Al-Qoida va IShID kabi zamonaviy zo‘ravon islomiy guruhlarning mafkuraviy peshvosi bo‘lib xizmat qilganini ta’kidlaydi. Guruh Bahrayn, Misr, Rossiya, Saudiya Arabiston, Suriya va Birlashgan Arab Amirliklari hukumatlari tomonidan terrorchi tashkilot deb topilgan.[1]

Suriya “Birodarlar”i 1970-yil hokimiyatga Baas partiyasi ichida to‘ntarish qilib mutloq boshqaruvni qo‘lga olgan Hofiz Asad boshchiligidagi alaviy kamchiligiga qarshi noroziliklarni bildira boshlaydi. O‘zlarini mamlakatda teng huquqli imkoniyatlardan mahrum ekanligini e’tirof etgan Suriya “Birodarlar”i asosan mamlakatning shimoliy mintaqalarda Aleppo va Xama shaharlarida noroziliklarni tashkil qilardi. Ammo, u paytda tinch namoyishlar uyushtitilgan. 1975-yilda Xamalik Adnan Saad al-Din Suriya “Birodarlar”ining oliv rahbari etib saylandi. Uning rahbarligida harakat idoralari, rasmiy mexanizmlari va aniq mehnat taqsimotiga ega bo‘lgan murakkab ierarxik tashkilotga aylantirildi. Qolaversa, “Birodarlar” radikal harbiy qanotini ishlab chiqdi va Suriyani shariat davlatiga aylantirish uchun “jihod” boshladi. 1976-yil qishidan 1979-yil yozigacha “Birodarlik”ga aloqador turli guruqlar davlatning yuqori martabali a’zolari, Baas partiyasi vakillari, alaviylar jamoasi va hatto alohida harbiy pozitsiyalar va lagerlarga hujum qildi. 1979-yilda ushbu jangovar guruqlar Halabdagi harbiy artilleriya mакtabida 83 nafar alaviy talabani o‘ldirdi. 1980-yil iyun oyida “Birodarlar” a’zolari granatalar va pulemyotlar yordamida Asadga suiqasd uyushtirishga urindilar. Bu voqealardan so‘ng H. Asad hukumati guruhga qarshi qattiq kurash olib bordi va guruhning yuzlab a’zolarini qamadi va ko‘philigiga otish hukmu o‘qildi. Bu voqealar prezident Hofiz Asadni 1980-yilda “Musulmon Birodarlar”ni taqiqlovchi va uning a’zolariga o‘lim jazosini belgilovchi 49-qonunni chiqarishiga turki bo‘ldi. Natijada, guruh a’zolarining aksaryati mamlakatni tark etdi.[19]

1990 va 2000-yillarda “Birodarlar” surgunda ekan o‘zini zo‘ravonliksiz, siyosiy fikrlaydigan guruh sifatida qayta nomlashga harakat qildi. 2011-yilning mart oyida Suriyada xalq noroziliklari avj olgach, “Birodarlar” qayta harakatga keltirildi va muxolifat orasida siyosiy va harbiy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qildi. Fuqarolar urushi avj olgan bir paytda,

“Birodarlar” Suriyaning yirik shaharlarida o‘z a’zolarini kichikroq jamoalarga qaytishga va u yerdagi fuqarolar bilan qayta aloqa o‘rnatishga chaqirdi. “Birodarlar” Suriyaning isyonchilar nazorati ostidagi hududlaridan, ayniqsa Halab va uni yaqinida a’zolarni yollashda muvaffaqiyat qozondi. Suriyalik birodarlarning yuzlab a’zolari surgundan Suriyaga qaytib kela boshlaydi. IShIDga qarshi kurash olib borgan “Suriya Birodarlar”i Turkiya qo’llab- quvvatlaydigan Ozod Suriya Armiyasi saflarida xizmat qildi. Tashkilotga a’zolik o‘lim bilan jazolanishi mumkin, ammo “Birodarlar” asosan muxolifat nazorati ostidagi hududlarda, jumladan Aleppo, Idlib va Xamada faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, boshqa “jihadchi” salafiy tashkilotlar Suriya muxolifatida tobora ko‘proq ustunlik va hukmronlikka egaligi sababli, “Birodarlar” faoliyati chetraqda va samarasiz qolmoqda.[2]

### **Jabhat al-Nusra (Hayat Tahrir al-Sham)**

Xalqaro sanksiya ro‘yxatidagi terror tashkiloti Jabhat al-Nusra (2017-yildan nomi Hayat Tahrir al-Shom yoki ash-Sham) 2011-yilda Suriyada Al-Qoidaning Asad rejimiga muxolifatdagi bo‘limi sifatida tuzilgan. Al-Nusra yetakchisi Abu Muhammad al-Jo‘loniy (inglizchda al-Golaniy) tezda Fors ko‘rfazidan o‘z donorlarini topdi, o‘z nazorati ostidagi hududlarda soliq va mulklarni musodara qilishdan daromad yig‘adigan, isyonchilar hujumlarini o‘tkazishda mohir bo‘lgan va tobora kuchayib borayotgan bir tashkilotni tuzdi. Abu Muhammad al-Jo‘loniy 2011-yilgacha Iroqdagagi al-Qoida bo‘limida yetakchilardan biri bo‘lgan va ichki nizolar kuchaygan paytda al-Bag‘dodiy (IShIDning asoschisi, 2019-yil o‘ldirilgan) tomonidan Suriyaga “jihadchi” guruh tuzish uchun yuborilgandi.[3.b.8.]

“Jabhat al-Nusra” al-Qoida bilan aloqalarini al-Qoidaning IShID bilan bo‘linishidan keyin ham davom ettirdi. Biroq, 2016-yil iyul oyi oxirida al-Jo‘loniy “Jabhat al-Nusra” tarqatib yuborilgani va yangi “Jabhat Fath ash-Sham” guruhi tashkil etilganini e’lon qildi va guruhning al-Qoida bilan tashqi aloqalari yo‘qligini ham ma’lum qildi. Ammo, ko‘plab tahlilchilarning fikricha, al-Jo‘loniy al-Qoida bilan jamoatchilik aloqalarini rasman uzgan bo‘lsa-da, guruh nazariy jihatdan yashirin aloqalarini davom ettirgan va al-Qoida bilan hamkorlik qilib strategik va operatsion ko‘rsatmalarni olib kelgan.[4] Shu bilan birga, al-Jo‘loniyning chiqishlari al-Qoida yetakchisi Ayman al-Zavohiri (2022-yil avgustda o‘ldirilgan) o‘rtasida kelishmovchilik va ziddiyatga sabab bo‘ladi.

2017-yil yanvar oyining oxirida Jabhat Fath ash-Shom yana bir qancha boshqa guruhlar - Harakat Nuriddin az-Zinkiy, Liva al-Haq, Jaysh al-Sunna va Jabhat Ansar al-Din bilan birlashib, Hayat Tahrir al-Sham (HTS)ni yaratish uchun yana bir bor nomini o‘zgartirdi. Al-Qoida rahbariyatining bayonotlari va xabarlarida HTS al-Qoidadan noqonuniy ravishda ajralib chiqqan va bay’at qasamini buzgan mustaqil salafiy-jihadchi tashkilot sifatida qaraladi.[5] Bir qancha

taniqli “jihodchilar” HTSni butunlay tark etib, guruhda fitna uyuştirib va al-Zavohiriya bayatlarini buzganliklari uchun ochiqchasiga tanqid qilishdi. Al-Zavohiriyning o‘zi birlashishga qarshi bir necha bayonotlar berdi, uning aytishicha, “ahdning buzilishi” tufayli ular “birdamlikka erisha olmagan” va hech qachon tuzulishlari uchun Al-Qoida rahbariyati tomonidan ruxsat etilmagan.[6]

Shu bilan birga, HTS hali al-Nusra nomini tanilgan paytlarda 2014-yil yanvar oyida IShIDga qarshi, ya’ni bir paytlar o‘zining “rahnamosi” bo‘lgan al-Bag‘dodiyya qarshi kurash olib boradi. Qiziq tarafi, al-Bag‘dodiyning o‘zi ham Iroqdagagi al-Qoidaning rahbari bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik IShIDni tashkil qilib al-Qoidaga qarshi kurash olib borgandi.[10]

Bugungi kunda HTS Abu Muhammad al-Jo‘loniy rahbarligida qolmoqda, biroq guruhning maqsadlari Al-Qoidadan mustaqilligini e’lon qilganidan keyin biroz o‘zgardi. Al-Qoida bo‘yicha tasdiqlangan ma’lumotlar bugungi kunda HTS nashrlarida deyarli yo‘q. Buning o‘rniga, guruh mahalliy darajaga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi “Asad rejimini ag‘darish va Eron homiyligidagi jangarilarini quvib chiqarish” orqali Suriyada islomiy boshqaruv o‘rnatishdir.[8]

Shu maqsadda al-Jo‘loniy ko‘p qirrali strategiyani ilgari surdi. HTS 2018-yil avgust oyida yakunlaganini da’vo qilgan birinchi bosqich “butun mintaqa uchun tahdid bo‘lgan va mazhablarni safarbar qilish uchun turtki bo‘lgan Fua va Kafriya shaharlaridan Eron qo‘llab-quvvatlaydigan (Basij, Hizballoh) jangarilarini chiqarish bo‘lib, ulardan rejim o‘z maqsadlariga erishish uchun foydalangan”. 2018-yil oktabr holatiga ko‘ra davom etayotgan ikkinchi bosqich IShID (“Islomiy davlat”) va uning Suriyadagi ittifoqchilariga qarshi kampaniya bo‘lib, ularni al-Jo‘loniy “beqarorlashtiruvchi” deb qoralagan. Uchinchi bosqich - qo‘srimcha hududni yo‘qotishning oldini olish uchun Suriya shimolini asosan Idlibni mustahkamlash yoki himoya qilish”.[8]

CSIS (Center for Strategic and International Studies) Transmilliy tahdidlar loyihasining salafiy-jihodiy guruhlar haqidagi so‘nggi hisobotiga ko‘ra, HTS 2018-yil oktabr holati bo‘yicha 12000 - 15000 atrofida jangarilarga ega.[8] Guruh asosan Suriyaning Idlib viloyatida joylashgan bo‘lsa-da, o‘z faoliyatini Suriyaning Halab, Xama, Dera va Damashq viloyatlarida ham terror va qo‘poruvchiliklarni amalga oshirib keladi. HTS terrorchi tashkilot sifatida tanilgan bo‘lsa-da, guruhga tegishli bo‘lgan “zo‘ravonlik voqealari”ning aksariyati uning hukumatga, Eron kuchlariga va IShIDga qarshi urushlari hisobiga to‘g‘ri keladi: 1786 ta to‘qnashuvda shunday hodisalar tasniflangan. Shu bilan birgalikda, HTS kuniga o‘rtacha bitta tinch aholi vakilini o‘ldirgan va bu holat eng ko‘p 2017-yil noyabr oyida bir oyida 338 ta begunoh insoni o‘limiga sababchi bo‘lgan.[8]

2018 yil davomida HTS bir nechta muvaffaqiyatsizliklarga duch keldi, jumladan, Al-Qaida markaziy rahbariyati tomonidan yuqorida aytilgan raddiya, shuningdek, nazorat hududining katta miqyosdagi yo‘qotilishi, mahalliy yordamning sustlashuvi, asosiy rahbarlarning o‘ldirilishi va uning saflarida sezilarli bo‘linishlar va boshqalar.[5] Shu bilan birga, 2018-yil oxirigacha 3000-4000 nafar xorijlikdan iborat bo‘lgan IShIDdan keyin Suriyaga eng yirik xorijiy jangarilarni jalg qila oldi. Bu uchun ular internet orqali kuchli da’vat ishlarini olib bordi. Ushbu faoliyatlarini moliyalashtirish uchun 2017-yil noyabr oyida Idlibda “Qutqarish” hukumatini tuzib, o‘z nazorati ostidagi munitsipalitetlarda suv va elektr energiyasidan foydalanganlik uchun soliq solishni boshladi. Shunigdek, HTS 2017-yil iyul oyida Idlib va Turkiya o‘rtasidagi Bab al-Halva chegara o‘tish joyini ham qo‘lga kiritib, undan o‘tuvchilardan olinadigan soliq terror tashkiloti uchun qo‘shimcha manba bo‘ldi. 2019-yil sentabr oyida HTS qo‘mondoni Abu al-Abed al-Ashida HTSnii korruptsion ichki amaliyotlarda ayblab chiqdi.[7]

Orada bir muddat HTSning kelajagi noaniq edi. Turkiya guruhni tarqatib yuborish va Turkiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan kattaroq muxolifat koalitsiyasiga qo‘shilish uchun bosim o‘tkazildi, biroq HTS rahbarlari “Hay’at Tahrir al-Shomning tashkiliy tuzilmasi bilan bog‘liq masalalarni muzokara qilib bo‘lmaydi” deb ta’kidladi.[5] Guruh, shuningdek, Idlibda Suriya rejimi va uning ittifoqchilari, jumladan Rossiya tomonidan hujumga uchramoqda. Qolaversa, HTSning Suriya muxolifatlari orasida, jumladan Ahrar ash-Shom, Jaysh al-Ahror va Suqur ash-Shom kabi guruhlarni o‘z ichiga olgan Milliy ozodlik frontidan ko‘plab raqobatchilari bor.[8]

Shunday bo‘lsa-da, 2019-yil Turkiya qo‘llab-quvvatlagan Milliy ozodlik fronti HTS tarafidan tashkil etilgan “Qutqarish” hukumatiga qo‘shilganini ma’lum qiladi. Natijada, HTS Idlibda yakka hukmronligini o‘rnatadi. 2020-yil 22-iyunda HTS o‘z qo‘l ostida bo‘lmagan barcha qarama-qarshi guruhlarni taqiqlab qo‘ydi va o‘z a’zolariga ajralib chiqish va mustaqil guruhlar tuzishni taqiqladi. Bu harakati bilan yaqinda tashkil etilgan Hurras ad-Din (HaD), Ansor al-Islom, Ansor ad-Din, Tansiqiyat al-Jihod va Liva al-Mouqatilin al-Ansoring faoliyatini noqonuniy qildi. Bunga javoban HaD HTSnii Asad va xorijlik bosqinchilar nomidan harakat qilganlikda aybladi. O‘sha oyda HTS va HaD o‘rtasida bir necha kun davom etgan shiddatli to‘qnashuvlar yuz berdi va 100 dan ortiq odam o‘ldi. 28 iyun kuni HTS Idlibda raqib jihodchi guruhlarga qarshi harbiy kampaniyani yanada kuchaytirdi va HaD yetakchisini qo‘lga oladi. HTS bugun Idlibda de-fakto o‘z hokimiyatini o‘rnatgan. Faqat Asad hukumatiga qarshi ekanligini ma’lum qilayotganligi unga qarshi Asad va uning ittifoqchilari Rossiya va Eron kuchlari bilan to‘qnashuviga sabab bo‘layotgan bo‘lsa, boshqa xalqaro kuchlar masalan, AQSh

va Britaniya kuchlari masofa saqlab turibdi, shuningdek HTS Turkiya tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ilgari surilmoqda.[9]

### **Jaish al-Islom**

Ilgari Liva al-Islom nomi bilan mashhur bo'lgan guruh keyinchalik 2013-yilda o'z nomini "Jaysh al-Islom" deb o'zgartirdi. Guruh "Islom koalistiyasi" siyosiy guruhiga qo'shilib Asad rejimiga qarshi kurash olib boradi. Jaysh al-Islomning markazi missiyasi "Asadga qarshi kurashish va IShIDning takfiri mentalitetini rad qilish"dir. "Jaysh al-Islom" yoki "Islom armiyasi" koalitsiyasi markazi Damashq va Sharqiy G'utada joylashgan bo'lib, 10-15 mingdan ortiq a'zodan iborat qo'shinga ega. Bu uni Sharqiy G'uta hududidagi eng yirik isyonchilar guruhiga aylantiradi. Jaysh al-Islom Al-Qoida va IShIDni islomdan chetlanish va uni islom uchun xavfli deb hisoblaydi. Shunindek, Jaysh al-Islom Al-Qoida va IShIDdan shu bilan farq qiladiki, u Yaqin Sharqdagi G'arbning mavjudligini yo'q qilishga yoki yagona islom davlatini yaratishga chaqirmaydi. Guruh asoschisi Zahran Aloush o'ziga ko'plab a'zolarini jalg qildi va harbiy texnika arsenalini kengaytirdi. Aloush 2015-yilgi Suriya harbiylarining havo hujumida o'ldirilgan. Guruhga hozir Essam al-Buvaydoniy boshchilik qilmoqda.[7]

### **Failaq al-Rahmon**

2013-yilda asos solingenan Failaq al-Rahmon (yoki al-Rahman legioni yoki al-Rahman korpusi) 9000 dan ortiq jangchilarni o'z ichiga oladi. Tashkilot o'zini "Suriya rejimini ag'darishni maqsad qilgan inqilobi harbiy tuzilma" deb ta'riflaydi, lekin Suriyani islomiy davlatga aylantirmoqchi emas. Guruhning harbiy qo'mondoni Abdul-Nosir Shmeyr Suriya armiyasining sobiq sardori bo'lgan. Guruh Turkiya, Qatar va HTS bilan ittifoqdoshligi va Sharqiy G'utadagi Jaysh al-Islomga qarshi ekanligi aytildi. Guruh 2011-yilda Suriya fuqarolik urushi boshida tuzilgan eng yirik isyonchi koalitsiyalardan biri bo'lgan Ozod Suriya Armiyasini bilan ham bog'langan. Guruh yaxshi resurslarga ega, chunki u qo'l bola zavodlarda o'z qurollarini ishlab chiqaradi. Guruh Jeneva va Ostonadagi tinchlik muzokaralarida ham ishtirok etgan.[18]

### **Ahror al-Shom**

Ahror al-Shom nomi bilan mashhur bo'lgan "Harakat Ahror ash-Shom al-Islomiya" Suriyada shariat asosidagi islom davlatini tashkil etishni maqsad qilgan. Sunniy salafiy jangari guruhi hisoblanadigan Ahror ash-Shom 2011-yilda Suriya inqilobi boshlanganidan keyin paydo bo'lgan va HTSning asosiy raqibi edi. Guruhda 25 000 dan ortiq jangchi borligi taxmin qilinmoqda. Ahror ash-Shom rasmiylari guruhni mo'tadil deb e'lon qilishga uringan bo'lsa-da, 2016-yilda guruh qo'mondoni Abu Yahyo al-Hamaviy "islomni qayta kuchaytirish" harakati doirasida al-Nusra fronti bilan aloqlarni kengaytirish istagini bildiradi.[11]

Ahror ash-Shom qo‘lbola portlovchi qurilmalardan qo‘zg‘olonchilar uchun vosita sifatida foydalanish, shuningdek, mobil artilleriya va boshqariladigan raketalar kabi qurollarni qo‘lga kiritish uchun harbiy bazalarni nishonga olishda birinchilardan bo‘lib harakati qilgani bilan tanilgan. IShID yetakchisi al-Bag‘dodiyning Suriyadagi sunniy jangari guruuhlar o‘rtasidagi yarashuv harakatlariga qarshi chiqqanidan so‘ng Ahror ash-Shom IShID bilan aloqalarini uzadi. Stenforddag‘i Xalqaro Xavfsizlik va Hamkorlik Markazi tahlilchilariga ko‘ra, Ahror ash-Shom hujumlari ta’sirini inobatga olgan holda, tashkilot go‘yoki Saudiya Arabiston, Qatar va Turkiyadagi donorlardan Suriya hukumat kuchlariga qarshi kurashish uchun mablag‘ olgan.[12] Ahror ash-Shom uchta mashhur soyabon tashkilotni - Suriya Islomiy Jabhasi, Islomiy Jabha va Jaysh al-Fathni tuzdi.

### **Hurras al-Din (HaD)**

Hurras al-Din (Din qo‘riqchilari) AQShning maxsus tayinlangan Global terrorchilik tashkiloti ro‘yxatiga kiradi. Guruh HTSning bo‘linib ketgan guruhi bo‘lib, keng tarqalgan fikrlarga ko‘ra u Al-Qoidaning Suriyadagi yangi bo‘limi hisoblanadi. HaD asosan HTS qochqinlaridan tashkil topgan. 2018-yil fevral oyida tashkil etilgan HaDga Xolid al-Aruriy (Abu al-Qosim al-Urduniy nomi bilan atalgan) va sho‘ro kengashi a’zolari Samir Hijoziy (Abu Hamam al-Shom yoki Foruq al-Suriyy laqabli), Sami al-Uraydiy (Abu Mahmud ash-Shom laqabli), Bilol Xuraysat (Abu Huzayfa al-Urduniy laqabli), Faraj Ahmad Nana va Abu Abd al-Karim al-Masriylar rahbarlik qiladi. Uning ta’sis bayonotida “Shomdag‘i jangovar guruuhlar o‘zaro urushini to‘xtatishga va muslimmonlar chodirini qutqarishga” chaqirilgan. Ushbu da’vatidan keyin o‘n oltidan ortiq jangari guruuhlar HaDga qo‘shiladi. HaD tashkil etilganidan beri 200 dan ortiq hujum uyuşhtirganini da’vo qilmoqda.[13]

HaD turli jangovar ittifoqlar tuzish orqali o‘zining harbiy salohiyatini yanada mustahkamladi. Ittifoqchilari qatoriga quyidagilar kiradi: 2018-yil aprel oyida asos solingan Hilf Nusrat al-Islom va 2018-yil oktyabr oyida tuzilgan Va-Hardh al-Muminin. Keyingi ittifoqlarga Jabhat Ansor ad-Din va Jamaat Ansor al-Islom kiradi. Oxirgi ikki guruuh Al-Qoidaga birlashgan guruhlardir.[13]

HaD o‘z mafkurasini Idlib bo‘ylab tarqatish uchun katta vaqt ajratadi. Diniy idora bilan bir qatorda, HaD ham “Haqni amr qilish va noto‘g‘ri ishlarni taqiqlash qo‘mitasi”ni tuzdi. Qo‘mita faoliyatiga “Hisb patrullari” (axloqiy politsiya) o‘tkazish ishlari kiradi. Bundan tashqari, HaD va uning Wa-Hardh al-Muminin guruhi o‘zlarining “Jahizuna kampaniyasi” doirasida mahalliy va onlayn yo‘l bilan harbiy harakatlar uchun mablag‘ to‘plashdi.[13]

2021-yil 1-yanvarda HaD jangarilari Raqqadagi Rossiya harbiy bazasi oldida bomba o‘rnatilgan avtomobilni portlatib yubordi. Qurbonlar soni haqida ma’lumot berilmagan, ammo

hujum HaD o‘z hujumlarini Idlibning odatdagi joyidan tashqarida kengaytirishi mumkinligini ko‘rsatdi. HaD rahbari Muhammad Abu Xolid as-Suriy keyinroq bayonot e’lon qilib, hujumdan maqsad “Suriya rejimi va Rossiya dushmani bazalarini” nishonga olish, “sirdan olib kirilgan xalqaro kelishuvlarni rad etish” ekanligini aytdi. HaDning umumiyligi hududidan tashqaridagi operatsiyani hisobga olgan holda, ba’zi tahlilchilar HaD Suriya rejimi kuchlari va hatto Eron jangarilariga qarshi Idlibdan tashqarida boshqa hujumlar uyuştirishi mumkinligini taxmin qilmoqdalar.[14]

### **Ozod Suriya Politsiyasi**

Turkiya “Firat himoyasi” operatsiyasi orqali Suriyaning mahalliy hukumatlariga muhim manbalar va gumanitar yordam ajratdi. Ushbu tashabbusning natijalaridan biri 2012 yilda Ozod Suriya politsiyasining (FSP) tashkil etilishi edi. Olti G‘arb davlati tomonidan moliyalashtirilgan FSP shimoliy Halabda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minalash maqsadida yaratilgan. FSPning Idlib, Daraa kabi isyonchilar nazoratidagi boshqa hududlarda yoki Halab qishloqlarining boshqa qismlarida faoliyat yuritayotgan politsiya bilan aloqasi yo‘q edi, aksincha, shimoliy Aleppoda faoliyat yuritayotgan mahalliy hukumatga hisobot berib turdi. Ishga yollanganlarning aksariyati Turkiyadagi qochqinlar lagerlaridan edi, biroq ularning ba’zilari sobiq isyonchi jangchilar ham edi. Militsionerlar turk kuchlari tomonidan maxsus tayyorgarlikdan o‘tib, jihozlar, kiyim-kechak, qurol-yarog‘ va politsiya mashinalari bilan ta’minaldi. 2019-yilning 16-yanvarida FSP Idlib viloyatini HTS egallab olganidan so‘ng o‘z faoliyatini to‘xtatdi. XTS va isyonchilarining janglarni to‘xtatish bo‘yicha kelishivi doirasida, ilgari Turkiya tomonidan bevosita qo’llab-quvvatlanmagan isyonchilar qo‘lida bo‘lgan barcha hududlar jangarilarning Milliy Qutqarish Hukumati boshqaruvi ostiga o‘tgan. Mahalliy matbuotning yozishicha, Ozod Suriya politsiyasi tarqatib yuborilgan hududlarga HTSga aloqador islom politsiyasi joylashtirilgan.[15]

Umuman olganda, Suriyada Asad hukumatiga qarshi muxolifatdagi qurollangan islomiy guruuhlar ko‘p. Ba’zilari kichkina guruh bo‘lib harakat qilmoqda, ba’zilari birlashib kurash olib bormoqda. Ba’zan esa kelisha olmay oralarida urush chiqmoqda va bo‘linib ketmoqda. Bundan tashqari, Asad rejimini himoya qiluvchi islomiy jangari guruuhlar ham bor: masalan, Harakat Hizbulloh al-Nujaba, Basij va boshqalar bo‘lib, ular shialik mazhabidan hamda Eron tarafidan qo’llab-quvvatlanadi. Shuningdek, etnik ko‘rinishga ega kurdalarning YPG tashkiloti ham mavjud.[20]

2020-yilning fevral oyi holatiga ko‘ra, Suriya mojarosi hali yaxshilangani yo‘q. IShID hududiy mag‘lubiyatga uchraganiga qaramay, bir qator jihodiy guruuhlar aholi o‘rtasida har kuni zo‘ravonlik qilishda davom etmoqda. Faol ishtirok etayotgan terrorchilik guruhlari: “Hayat Tahrir ash-Shom” (HTS), Milliy ozodlik fronti, “Huras al-Din”, “Xalq mudofaa birliklari”

(YPG), Failaq ar-Rahmon, “Jaysh al-Islom”, Nuriddin al-Zenkiy harakati (NZD), Ahror ash-Shom va boshqalar.[14] Bugungi kunda oralarida eng kuchlisi HTS bo‘lib, al-Qoidaning Suriyadagi rasmiy bo‘limi bo‘lgan al-Nusra frontining so‘nggi timsolidir. Guruh yaxshi jihozlangan va Suriya shimolidagi eng kuchli jangari guruhlardan biri hisoblanadi. HTSning sho‘basi Hurras al-Din ham hududda o‘z o‘rnini saqlab turibdi. Yana bir muhim kuch Turkiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan Milliy ozodlik fronti (NLF) bo‘lib, u 2018-yilda HTSga qarshi kurashmoqchi bo‘lgan isyonchi guruhlar tomonidan tuzilgan. NLF ittifoq ko‘rinishida bo‘lib, o‘z ichiga qattiq jangari islomiy guruh bo‘lgan Ahror ash-Shom, shuningdek, “mo‘tadil” Ozod Suriya Armiyasi soyaboni ostida xizmat qiladigan boshqa guruhlarni o‘z ichiga oladi. 2019 yilda NLF ikki guruh o‘rtasida to‘qnashuv boshlanganidan so‘ng Suriya shimolidagi nazorati ostidagi hududning katta qismini HTSga boy berdi. 2019 yil yanvar oyida NLF HTS tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ma’muriyatni tan olish bo‘yicha kelishuvga erishdi va o‘shandan beri ikki guruh Suriya hukumatining so‘nggi hujumlariga qarshi birgalikda kurashmoqda.

Hukumatga qarshi Suriyadagi ikkinchi kuch markazi bo‘lib qolayotgan kurdrlarning qurolli guruhi YPG islomiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan yagona etnik guruhdir va AQSh tomonidan o‘z vaqtida IShIDga qarshi kurashda har tomonlama jiddiy qurollantirilgan.[17]

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Suriyada oxirgi 20 yillik davrda juda katta ichki bo‘linishlar sodir bo‘ldi. Jamiyatdagi bunday bo‘linishilar ortidan har bir ijtimoiy guruh o‘zlarining qandaydir siyosiy yoki harbiy birlashmalarini tashkil etishga urindi. Bunday birlashmalar esa hokimiyat va resurlar uchun talashish fonidan davlatning beqarorligi va konfliktlar markaziga aylanishiga sabab bo‘ldi. Davlatdan yagona boshqaruv tizimining qulashi esa geosiyosiy kuchlar uchun Suriya hududida o‘z manfaatlari doirasida siyosat yurita olish imkoniyat eshiklarini ochdi. Bugungi Suriyaning barqaror davlat sifatida shakllanishi mazkur guruhlar faoliyatiga chek qo‘yilishi va yagona davlatchilikni tiklash bilan bog‘liq bo‘lib turibdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Carnegie Endowment for International Peace, “The Muslim Brotherhood in Syria”, February 01, 2012, <https://carnegieendowment.org/2012/02/01/muslim-brotherhood-in-syria>
2. Raphaël Lefèvre, The Muslim Brotherhood Prepares for a Comeback in Syria. Carnegie Endowment for International Peace, Washington, 2013. <https://ciaotest.cc.columbia.edu/wps/ceip/0028223/index.html>
3. Thomas Joscelyn, “Al Qaeda and allies announce ‘new entity’ in Syria”, Long War Journal, January 28, 2017. <https://cisac.fsi.stanford.edu/mappingmilitants/profiles/liwa-al-haqq>

4. Hassan Hassan, “Jabhat Al Nusra and Al Qaeda: The Riddle, the Ruse and the Reality,” The National, November 1, 2017. <https://cisac.fsi.stanford.edu/mappingmilitants/profiles/hayat-tahrir-al-sham>
5. Seth Jones et al., “Al Qaeda’s Struggling Campaign in Syria”, Washington, DC: CSIS, April 2018, <https://www.csis.org/analysis/al-qaedas-struggling-campaign-syria>
6. Charles Lister, “How al-Qa’ida Lost Control of its Syrian Affiliate: The Inside Story,” CTC Sentinel 11, issue 2, February 2018, <https://ctc.usma.edu/al-qaida-lost-control-syrian-affiliate-inside-story/>
7. Mapping Militant Organizations. “Hay’at Tahrir al-Sham.” Stanford University. Last modified June 2021. <https://cisac.fsi.stanford.edu/mappingmilitants/profiles/hay'-tahrir-al-sham>
8. Center for Strategic and International Studies, Hay’at Tahrir al-Sham (HTS), TNT Terrorism Backgrounder, 2018, [https://www.csis.org/programs/transnational-threats-project/past-projects/terrorism-backbackgrounders/hayat-tahrir-al-sham](https://www.csis.org/programs/transnational-threats-project/past-projects/terrorism-backgrounders/hayat-tahrir-al-sham)
9. Hosam al-Jablawi, ‘Nour al-Din al-Zenki Movement: How a Once Moderate Group Joined Fateh al-Sham”, Atlantic Council, February 17, 2017, <https://www.atlanticcouncil.org/blogs/syriasource/nour-al-din-al-zenki-movement-how-a-once-moderate-group-joined-fateh-al-sham/>
10. Mapping Militant Organizations. “Jaysh al-Islam.” Stanford University. Last modified March 2019. <https://cisac.fsi.stanford.edu/mappingmilitants/profiles/jaysh-al-islam>
11. “Syrian Brotherhood not seeking to form alliance with Ahrar Al-Sham”, Middle East Monitor, August 26, 2015, <https://www.middleeastmonitor.com/20150826-syrian-brotherhood-not-seeking-to-form-alliance-with-ahrar-al-sham/>
12. Mapping Militant Organizations. “Ahrar al-Sham.” Stanford University. Last modified March 2022. <https://cisac.fsi.stanford.edu/mappingmilitants/profiles/ahrar-al-sham>
13. Aaron Y. Zelin, “Huras al-Din: The Overlooked al-Qaeda Group in Syria”, Washington Institute, Sep 24, 2019, <https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/huras-al-din-overlooked-al-qaeda-group-syria>
14. Khaled al-Khateb, “Is Al-Qaeda affiliate expanding attacks beyond Syrian town of Idlib?” Al-Monitor, January 11, 2021, <https://www.al-monitor.com/originals/2021/01/syria-huras-al-din-idlib-raqqa-attack-islamic-state.html#ixzz7kWGk3qkJ>
15. Harun al-Aswad, “Syrian Free Police disband following HTS militant takeover in Idlib”, Middle East Eye, 16 January 2019, <https://www.middleeasteye.net/news/syrian-free-police-disband-following-hts-militant-takeover-idlib>

16. Mona Yacoubian, “A Month After U.S. Withdrawal, What is the State of Play in Syria?” United States Institute of Peace, November 7, 2019. <https://www.usip.org/publications/2019/11/month-after-us-withdrawal-what-state-play-syria>
17. Karimov, F. E. (2022). CONCEPTUAL AND PRACTICAL APPROACHES TO SOLVING ETHNIC PROBLEMS. *Journal of Social Research in Uzbekistan*, 2(05), 20-28. <https://topjournals.uz/index.php/jsru/article/view/99>
18. BBC News, “Faylaq al-Rahman”, 22 February 2018, <https://monitoring.bbc.co.uk/product/c1douzrw>; Bassem Mroue, “Thousands of well-armed rebel fighters are in Syria’s Ghouta”, Associated Press, February 28, 2018.
19. Carnegie Middle East Center, “No More ‘Hama Rules’”, September 19, 2016, <https://carnegie-mec.org/diwan/64609>
20. KARIMOV, F. (2020). The issue of ethnic kurdish people in the middle east: history of origin and evolution. *International Journal of Pharmaceutical Research (09752366)*, 12(2). <https://openurl.ebsco.com/EPDB%3Agcd%3A4%3A15135332/detailv2?sid=ebsco%3Aplink%3Ascholar&id=ebsco%3Agcd%3A155598045&crl=c>